

Yosh avlodning jismoniy tarbiyasi va bolalar sporti sohasida yoshlarni, ayniqsa, qishloq joylarda qizlarni muntazam ravishda sportga jalb etish ishlarini bosqichma-bosqich kuchaytirish darkor.

Islom KARIMOV

TONG yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2010-yil
20-dekabr
N:51
(66800)

ISSN – 2010-6092

HAYOT QOG'UZ, YOSHLIK QALAMDIR

**BOLALAR SPORTIGA
BAG'ISHLANGAN
MAXSUS SON**

Mustaqil yurt tayanchlarimiz,
Bizlar bilan qudratli Vatan.
Har qarichi aziz, ardoqli,
Lozim bo'lsa fido jon-u tan.

Har jabhada – o'qish va ishda,
Ajdodlarning ruhi madadkor.
Ulg'ayyapmiz barkamol bo'lib,
Qalbda faxr, dilda iftixor.

Kurashlarda Abdullamiz bor,
Maydonlarda Rustami doston.
Bugun o'zbek sportchisiga,
Tan beradi jumlayi jahon.

Mashg'ulotlar charchatmas aslo,
G'alabaga eltuvchi so'qmoq.
G'olib bo'lib bayrog'imizni,
Ko'taraylik yana yuksakroq!

Hayot qog'oz, yoshlik qalamdir,
Bezatayluk yana ko'rkamroq.
Yurtga bo'lgan muhabbatini
Izhor etar Barkamol avlod.

*Nigora XALILOVA,
poytaxtdagi 218-maktab o'quvchisi*



1992-yilda O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuni e'lon qilindi. Bu mustaqil O'zbekistonning sport to'g'risidagi dastlabki qonuni edi. Ushbu qonun mamlakatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, sog'lom farzandlarni tarbiyalash ishini tizimli yo'lga solish va rivojlantirish borasidagi muhim hujjat bo'lib, mamlakatimizda sohaning rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi. 1993-yilda esa Vazirlar Mahkamasining «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi tarixiy qarori e'lon qilingach, sohada chinakam olamshumul voqealiklar ro'y bera boshladi.

Yodingizda bo'lsa, 1994-yili Yaponiyaning Nagana shahrida bo'lib o'tgan XII Osiyo o'yinlarida ilk bora O'zbekiston sport delegatsiyasi mustaqil davlat vakillari sifatida o'z bayrog'imiz va madhiyamiz ostida ishtirok etishdi. Bu qit'a bellashuvida, ayniqsa, futbolchilarimiz qo'lga kiritgan olamshumul g'alaba, ya'ni Osiyo o'yinlarining oltin medali O'zbekiston nomini butun dunyoga tanitdi. Shu yili yana bir sportchimiz Lina Cheryazova Lilixamerda chang'i akrobatikasi, fristayl bo'yicha dunyoda tengsiz ekanligini isbotlab, ilk Olimpiya oltin medalini yurtimizga tuhfa etdi.

POYDEVOR



1996-yili AQSHning Atlanta shahrida bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlarida esa dzyudochi Armen Bagdasarov kumush, bokschi Karim To'laganov esa bronza medallarini qo'lga kiritib, yurtimiz sharafigini munosib himoya qilishdi.

Bugun O'zbekiston Xalqaro Olimpiya harakatining asosiy vazifasi jahon maydonlarida faolligi bilan doimiy ishtirokchiga aylanish. Yurtimizda sportning 70 dan ortiq turi ommaviylashib, rivojlanib bormoqda. Sportning boks, erkin kurash, shaxmat, baydarka va kanoeda eshak eshish, professional boks va yana bir qator turlari bo'yicha Vatanimiz nafaqat Osiyoda, balki dunyoda yetakchi

o'rinlarni band etib turibdi. Yurtimizda asos solingan «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada»ning sport bellashuvlarida kashf etilayotgan iqtidorli yigit-qizlarimiz orasidan yangi-yangi chempionlar yetishib chiqayotganligini alohida e'tirof etsak arziydi. Respublika bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan viloyatlarimiz, tuman va hatto chekka qishloqlarimizda qurilgan ko'plab sport-sog'lomlashtirish maskanlari, stadionlar, sport zallari bugun millionlab o'smir yoshlarimizning chiniqish, mahorat maktablariga aylangan.

Bir so'z bilan aytganda, mustaqilligimizning dastlabki yillarida yurtboshimiz tashabbusi bilan qo'yilgan mustahkam poydevor ana shu yutuqlarning chinakam omili bo'lmoqda.

Haydar AKBAR,
sport jurnalisti



Gazetamizning sportga bag'ishlangan mazkur sonida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining ijrochi direktori Abdulla Achilovdan bolalar sporti borasida amalga oshirilayotgan yangiliklar borasida so'zlab berishlarini so'radik:



Uch marta Osiyoning «Eng yaxshi hakami» deya e'tirof etilgan Ravshan Ermatov chin ma'noda yurt iftixoriga aylandi.

– Jamg'armamiz o'z ish faoliyatini har yili bo'lib o'tadigan homiylik Kengashi yig'ilishida amalga oshirilgan ishlar hisoboti bilan birgalikda kelgusidagi rejalar asosida olib boradi. «Alpomish» va «Bar-

chinoy» testlari, «Quvnoq startlar» televizion musobaqalari, bog'cha tarbiyalanuvchilari o'rtasida «Sog'lomjon» va «Polvonjon» musobaqalari, maktab o'quvchilari o'rtasidagi «Olimpiada umidlari», «Asalim», «Shumbola», «Barkamol nihollar», «Bahor malikalari», «Chimyon sadosi» festivallari, hamkor tashkilotlar bilan o'tkazilib kelinayotgan «Kamolot» shaxmat taxtasi, «Kamolot» malika-

si, «BABY Cup», harbiy vatanparvarlik o'yinlari, «Mahallamiz pahlavonlari», «Futbolimiz kelajagi», Parolimpiya o'yinlari, «Giyohvandlikka qarshi – ekstrim», umumta'lim maktab o'quvchilari ishtirokidagi «Umid nihollari», akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida o'tadigan «Barkamol avlod», oliy o'quv yurtlari

musobaqasi 2002-yilda Farg'ona viloyatida sportning 11 turi bo'yicha bo'lib o'tgan edi. Hozirda uch yilda bir marotaba «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» sport musobaqalarining Respublika bosqichlari o'tkazib kelinmoqda. Umumta'lim maktablarida 1-4 va 5-9-sinflarga mo'ljallangan yangi tahrirdagi jismoniy tarbiya fani darsliklari nashrdan chiqarildi.

OLAMGA

talabalari orasida bo'lib o'tadigan «Universiada» musobaqalari shular jumlasidandir.

Ushbu uch bosqichli sport musobaqalarini o'tkazish tizimi dunyoning boshqa hech bir mamlakatida yo'lga qo'yilmaganligi diqqatga sazovordir. Dastlabki «Umid nihollari»

– Umid bilan ekilgan nihol bir kun, albatta, o'z meyasini beradi. Yoshlarimizning respublika va jahon miqyosida qo'lga kiritgan yutuqlari haqida ham aytib o'tsangiz...

DUNYO SPORT ARENALARIDA MADHIYAMIZ

Yurtimizning barcha go'shalarida sport inshootlari barpo etilib, maktablarning sport zallari ta'mirlanmoqda. Eng zamonaviy sport anjomlari yosh sportsevarlar ixtiyorida.

Bu g'amxo'rliklarga javoban yosh sportchilarimizning Singapurda o'tkazilgan Yoshlar olimpiadasida, kuni kecha Xitoyda poyoniga yetgan Osiyo o'yinlarida yuqori natijalar ko'rsatganligi hamma-mizni sevintirdi.

Yurtimiz madhiyasi bugun dunyo sport arenalari uzra

tez-tez yangrayotgan ekan, buning asosiy sababi, avvalo, yurtimizda bolalar sportiga bo'lgan e'tibor mevasidir.

Bugungi kunda 79 ta sport inshooti, suzish havzalariga 3,2 mlrd. so'mlik sport anjomlari yetkazib berildi. Shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan oilalardan bo'lgan 120 ming qiz bolalarga 3,5 mlrd. so'mlik sport kiyim boshi va anjomlari topshirildi.

O'tgan davr mobaynida bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi va uning filiallari tomonidan ikki ming 699 ta sport tadbirlari o'tkazilib, ularda 797 ming 471 nafar o'quvchilar, shundan 331 ming 806 nafari qizlar ishtirok etishdi. Bundan tashqari, 42 ta xalqaro musobaqada jami 513 nafar sportchi o'quvchilar qatnashishdi.

Joriy yilda 21 ta bolalar sporti ob'ektlarida 19,1 mlrd. so'mlik qurilish-tiklash, shuningdek, 42 ta umumta'lim maktablardagi sport zali qurilishi bo'yicha 7,4 mlrd. so'mlik, 26 ta suzish havzasini rekonstruksiya qilish yuzasidan 7,5 mlrd. so'mlik ishlar amalga oshirildi.

Bu kabi xayrli ishlar zamirida ertangi kun kelajagi, millat ko'rki, Vatan faxri, shuningdek, sherdil va o'tyurak farzandlarimizning yorug' istiqboli turibdi.

Musulmon
NAMOZ,
Madaniyat va sport
ishlari vazirligining
matbuot xizmati rahbari



Aytishlaricha, Nukus yaqinida Qizketgan qo'rg'oni bor ekan. Qo'rg'on aholisi farzandlarini jismonan chiniqtirib, mard va jasur bo'lib voyaga yetishlariga katta e'tibor qaratar ekanlar. Bu haqda eshitib, qizketganlik o'g'il-qizlarning turmush tarziga qiziqib qoldik. Qiziqqanimizcha bor ekan, ularning bo'sh vaqtimiz deyarli bo'lmaydi, degan gaplari, ochig'i, bizni ajablantirdi. Keyin bilsak, ular bo'sh vaqtlarini qo'rg'ondagi sport majmuasida o'tkazar ekanlar.

QORAQALPOQNING MARD YOSHLARI:

ularning siri nimada?

700 dan ortiq sportga ishtiyoqmand yoshlarni o'z bag'riga olgan ushbu majmuada 20 dan ziyod malakali murabbiylar yoshlarga saboq berib kelmoqdalar. Bu sportsevar yoshlarning ota-onalari orzulagandek jismonan baquvvat bo'lib ulg'ayayotganlari sababi ham aslida shunda ekan!

E'tibor bersak, qoraqalpoq bolalarining aksariyat qismi sport mashg'ulotlariga muntazam qatnashar ekanlar. Bugungi kunda Qoraqalpoq iston Respublikasi bo'yicha 260 mingga yaqin yoshlar sportga jalb etilgan bo'lib, ularning 129 mingdan ziyodi 754 ta sport jamoalarida sportning turli turlari

bilan shug'ullanmoqdalar. Quvonarlisi, Qoraqalpoq iston Respublikasida sport yo'nalishida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari natijasida eng chekka ovullarda ham yoshlarning sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

O'quvchilar umumta'lim maktablari qoshida, shuningdek, mahallalarda zamonaviy sport majmualari barpo etilib, ular zarur sport anjomlari bilan jihozlanganidan juda mamnunlar. Asosiysi, iqtidorli bolalar ixtisoslashgan sport maktablariga jalb

etilib, malakali murabbiylar safi kengaytirilayotgani qoraqalpoq bolalarini bir qancha yutuqlarga erishishlariga sabab bo'lmoqda. Demak, mardlikning siri sport ekan!

Omada sizga, qoraqalpoq yoshlari!



BESHBULOQDA BO'LGANMISIZ?

Beshbuloq qishloq'iga hech borganmisiz? Agar yo'lingiz tushib bu qishloqqa borib qolsangiz, albatta, Dehqonobod sport majmuasiga bir kirib o'ting. Qarshi «Lokomotiv» sport klubiga qarashli ushbu majmuadagi voleybol, milliy kurash, futbol to'garaklari, to'rtta trenajor zallari, sauna, dush, tibbiyot xonasi zamonaviy talablarga to'la javob beradi. Milliy kurash to'garagida bolajonlarga saboq berayotgan murabbiy Shahzod Rajabovning shogirdlaridan umidi katta. Bu yerdagi yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishlarini ko'rib, ularning kelajakda chempion bo'lib yurtimiz nomini dunyoga tanitishlariga shubha qilmaysiz.

SAMARQANDDA YAXSHI AN'ANA

Samarqand viloyatida yaxshi bir an'ana yo'lga qo'yilgan. Bu qanday an'ana ekan, deysizmi? Agar qiziqayotgan bo'lsangiz, bu haqda sizlarga qisqacha hikoya qilib beramiz:

Dam olish kunlari samarqandlik bolajonlar uchun katta bayramga aylanib ketadi. Nega desangiz, ular shu kunlari barvaqt turib, «O'quvchilar spartakiasida» goshiladilar. Bir hafta orziqib kutilgan musobaqalarda ishtirok etayotgan o'g'il-qizlarning ota-onalari ham farzandlari bilan maydonga yo'l oladilar. Maydonga yig'ilgan olti mingdan ziyod o'quvchilar ko'z-ochib yumguncha tengdoshlari bilan musobaqaga kirishib ketadilar. Ularning aytishlaricha, mashg'ulotlarda chiniqib, bir hafta charchoq nimaligini bilmas ekanlar.

Aka va opalariga havas qilgan shirintoylar ham maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan «Sog'lomjon – polvonjon» musobaqalarida bellashyaptilar. Mahallalarda o'tkazilayotgan «Mahallamiz polvonlari», «Sog'lom

oilamiz» oilaviy sport musobaqalarini aytmaysizmi?! Bu musobaqalarda boboyu nabiralalar ishtirok etar ekanlar. Bundan tashqari, «Futbolimiz kelajagi», «Badiiy gimnastika – nafis sport» kabi bellashuvlar yoshlar orasida umidli sportchilarni aniqlashda muhim omil bo'lmoqda.

Sog'lom turmush tarzi asosida voyaga yetayotgan o'g'il-qizlarni ko'rib, beixtiyor «Kelajagimiz ishonchli qo'llarda», deysiz quvonib.



– 2010 – «Barkamol avlod yili» Davlat dasturida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, 2010-yilning shu kuniga qadar Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 51 ta respublika musobaqalari, 13 ta o'quv-mashg'ulot yig'inlari o'tkazilgan.

Yosh, umidli sportchilari-mizga, ayniqsa, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi, sport bilan muntazam shug'ullanuvchi

g'ulotlari va sport festivallarida ishtirok etish imkoniyati yaratilgan. Xalqaro musobaqalarda ishtirok etgan sportchi yoshlarimiz sportning tennis, sport va badiiy gimnastika, stol tennisi, dzyudo, taekvando, suzish, baydarka va kanoeda eshkak eshish, akademik eshkak eshish, suv polosi turlaridan jami 115 ta: **54 ta oltin, 32 ta kumush va 29 ta bronza** medallarni qo'lga kiritishdi.

2003-2010-yillarda mobaynida o'tkazilgan jami 491 ta xalqaro musobaqalar, turnirlar, festival va o'quv mashg'ulotlarda ishtirok etgan 2496 nafar o'quvchi-sportchilar **181 ta oltin, 121 ta kumush va 131 ta bronza** medallar sohibi bo'ldilar.

– Maxsus sport maktablari va ularning tarbiyalanuvchilari uchun yaratilgan

shart-sharoitlar borasida ham gapirib bersansiz.

– Bugungi kunda Xalq ta'limi vazirligi tizimida 29 ta futbol bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar faoliyat olib bormoqda. Ularda mashg'ulotlar 6-9-sinf bazasida 7000 ga yaqin o'quvchilar uchun tashkil etilgan bo'lib, bitiruvchilar keyingi ta'lim va mahoratlarini Olimpiya zaxiralari kollejlarda davom ettiradilar. Mamlakatimizda sportga, ayniqsa, millionlar o'yini hisoblangan futbolga bo'layotgan alohida e'tibor namunasi

sifatida Andijon shahrida futbol bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab-internet tashkil etildi.

Kelgusi yili Prezidentimiz Qarorlari asosida 21 ta suzish havzalari, 65 ta musiqa va san'at maktablarida qurilish-ta'mirlash ishlari olib boriladi. Shuningdek, yuzga yaqin sport inshootlarini qurish rejalashtirilgan bo'lib, bu Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining navbatdagi homiylik Kengashi yig'ilishida tasdiqlanadi.

– **Samimiy suhbatningiz uchun tashakkur!**



2003-2010-yillarda jamg'arma tomonidan respublikamizning turli hududlarida 1266 ta inshoot qurilib, foydalanishga topshirildi. Ulardan 1153 tasi sport inshootlari, 52 tasi musiqa va san'at maktablari, 61 tasi suzish havzalari. Jumladan, 186 ta tasdiqlangan loyiha asosidagi TIP sport inshootlari, 724 ta maktabdagi yangi sport zallari, 243 ta inshoot rekonstruksiyasi, 61 ta suzish havzalari, 52 ta musiqa va san'at maktablari shular jumlasidandir.

IBRAT

yoshlarga dunyoning rivojlangan davlatlarida (Hindiston, Rossiya, Turkiya, Fransiya, Germaniya, Latviya, Koreya, Qozog'iston, Belgiya, Malayziya, Tailand va boshqa davlatlarda) tashkil etilayotgan turli xil xalqaro musobaqalar, o'quv-yig'in mash-



2008-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan Respublika Olimpiya zaxiralari tennis maktabi tashkil etildi. Bundan maqsad, bo'lajak tennischilarni tarbiyalash, terma jamoa safini malakali sportchilar bilan to'ldirish, sport ustalarini kashf etishdan iborat.




Samig' ABIDOV, Respublika Olimpiya zaxiralari tennis maktabi direktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy, xalqaro toifadagi sport usti:

ULUG' VAZIFAMIZ BOR

– Tennis maktabimizda ayni damda 45 nafar umidli tennischilar tajribali mutaxassislar qo'lida tarbiyalanayaptilar.

Qisqa vaqtda maktabimiz o'quvchilari yuqori ko'rsatkichlarni qo'lga kiritayotganlarini alohida e'tirof etishni istardim. Jumladan, terma jamoamiz a'zosi 15 yoshli Sabina Sharipova yakkalik bahslarida xalqaro turnirlar g'olibi bo'ldi. U o'z tengdoshlari reytingida dunyoning 400 nafar kuchlilari qatorida 84-o'rinni egallab turibdi. Sanjar Fayziyev, Abdovoris Saitmuhammedov, Valeriya Korotina, Alina Abdurahimova yakkalik va juftlik bahslarida O'zbekiston chempionati g'oliblari bo'lishdi.

Jismoniy va ma'naviy tarbiyasi mukammal shaxs hech qachon qoqilmaydi. Asl maqsadimiz negizida ham shu ulug' va qutlug' vazifa yotadi.



BUGUNDAN BOSHLANADI

– Katta tennis bilan yetti yildan buyon shug'ullanaman. Dastlabki saboqlarni ustozim Denis Kostnyanovdan olganman. Ayni paytda esa murabbiylarim O'tkir Abdullayev, Shegay Vladislav boshchiligida mashg'ulotlarda chiniqyapman. Mening tennis bilan shug'ullanishim shunchaki ermak emas.

Olimpiya zaxiralari maktabiga kuchlilar qatorida qabul qilindim.

Yaqinda maktabimizda o'tkazilgan saralash musobaqasi men uchun dekabr oyida Tailand shahrida bo'lib o'tadigan bolalar va o'smirlar musobaqasiga yo'l ochdi. Mashg'ulotlar samarasi, ustozlar mehnati, yurt ishonchini oqlashga harakat bugundan boshlanishi zimmamizga yanada kattaroq mas'uliyat yuklaydi.



Iskandar DOVUTOV,
15 yosh, o'smirlar
terma jamoasi a'zo-
ligiga nomzod:



CHEMPIONLARI

KO'P

MASKAN

Aziz bolajontar, aytaylik, bir sportchi tengdoshingiz O'zbekiston chempioni bo'ldi. Bu voqea u tahsil olayotgan maktabda qanchalar shov-shuv bo'lib ketishini yaxshi bilasiz-a? Agar bir maktabdan bir emas, bir necha chempionlar chiqsa-chi?! Yo'g'-'e, deysizmi?

Ajablanmang, men poytaxtdagi ana shunday maktablardan birini bilaman. Keling, yaxshisi, bu bilim maskani haqida batafsilroq so'zlab beray:



Madina
maktab
faxrii

Yaqinda Toshkent shahar, Yakka-saroy tumanidagi 160-ixtisoslashtirilgan maktabga «Forum Junior Sport» klubi direktoridan maktab keldi. Unda klub jamoasi nomidan sportning U-shu turi bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarning doimiy qatnashchilari hamda bir necha bor g'oliblari bo'lgan mazkur maktabning 8-«G» sinf o'quvchisi Ilhom Umarov va 6-«V» sinf o'quvchisi Madina Fozilova kabi yosh sportchilarni tarbiyalab kamol toptirayotganliklari uchun maktab rahbariga minnatdorchilik bildirilgandi.

Bu e'tibor ustoz va murabbiylarning kamtarona mehnatlari evaziga berilgan yuksak baho bo'ldi. U-shu bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'lgan Madina Fozilovani esa maktabning faxriga aylantirdi.

1245 nafar o'g'il-qiz tahsil olayotgan mazkur bilim dargohida Ilhom va Madina kabi umidli sportchilar talaygina. Maktabdagi U-shu, basketbol, gandbol, shaxmat-shashka, suzish, sport raqslari kabi o'nlab to'garaklarga 195 nafar o'quvchi jalb qilingan bo'lib, ulardan 62 nafarini qizlar tashkil qiladi. Maktab hududidagi «Qaldirg'och» suv havzasida o'tadigan suzish mashg'ulotlariga o'quvchilar bajon-u dil qatnashadi.

7-«V» sinf o'quvchisi Gulshanam Yuldasheva sinxron suzish bo'yicha

O'zbekiston chempioni hamda Osiyo chempionatining kumush medali sovrindori bo'lgan. Uning sinfdoshi



Maya Filippova esa badiiy gimnastika bo'yicha respublika chempioni va bir necha bor xalqaro musobaqalar sovrindori bo'ldi.

5-«V» sinf o'quvchisi Zulya Yuldasheva badiiy gimnastika bo'yicha respublika chempionatining kumush medalini qo'lga kiritib, murabbiylari ishonchini oqladi.

Shuningdek, «Umid nihollari» sport musobaqasining tuman bosqichida muvaffaqiyatli qatnashgan o'quvchilar

basketbol bo'yicha birinchi, shaxmat bo'yicha ikkinchi, badiiy gimnastika bo'yicha birinchi, suzish bo'yicha birinchi, voleybol bo'yicha uchinchi o'rnlarni qo'lga kiritib, maktablari nomini bir emas, bir necha bor sovrindorlar qatorida jaranglashiga erishildi.

Maktabning kichkintoylari ham sportsevar aka-opalaridan ortda qolishmayпти. Yaqinda quyi sinf o'quvchilari ishtirokida o'tgan «Hosil bayrami»da Qovoqvoy-u Chanoqvoy, Qovunjon-u G'ujumoy bo'lib, yugurib-yelib, bir-birlarini quvalab kelib, zo'r tomosha ko'rsatishdi.

Bir so'z bilan aytganda, bayramlar, tadbir va tantanalar, sport musobaqalari muntazam tarzda o'tkaziladigan mazkur bilim maskanida o'quvchilarning har bir kuni maroqli, mazmunli o'tmoqda.



Qadimda bir polvon o'tgan ekan. Uning dovrug'i o'z yurtidan oshib, boshqa ellarga ham taralib, unga farzandini shogirdlikka bermoqchi bo'lgan otanonalar soni kundan-kunga ortib boribdi.

O'g'lini pahlavon bo'lishini istagan bir ota ham ne-ne orzular bilan yolg'iz o'g'lini «Go'shti sizniki, suyagi bizniki» deb unga shogirdlikka beribdi va olti oyda bir kelib o'g'lidan xabar olib ketish sharti bilan uyiga qaytibdi. Bir necha kunlik olis yo'l charchog'ini ham sezmay uyiga kelgach, kun sanay boshlabdi.

Kunlar o'tib, belgilangan vaqt kelibdi. Ota olis safarga otlanibdi. Uzoq yo'l bosib, manzilga yetibdi. O'g'lini kurashning turli usullarini bajarayotgan holda ko'rish orzusida yong'an ota umuman boshqa manzaraning guvohi bo'libdi. Shogirdlar quchoq sig'mas baqateraklarni quchoqlagancha soatlab qimir etmay turishardi. Otaga bu hol juda g'alati tuyulibdi. Hafsalasi pir bo'lib, ortiga qaytibdi. Yana yarim yilni o'tkazib o'g'lidan xabar olmoqchi bo'libdi. Afsuski, bo'lajak polvonlarni yana ilgari holatda ko'ribdi. Ota sabr bilan ortiga qaytibdi. Bu holat yana bir necha bor takrorlangach, uning sabr kosasi to'lib, ustozga achchiq-achchiq gaplar qilibdi.

– O'g'limning necha yillik umrini bekor o'tkazdingiz, – debdi jahl bilan. – Qachon qaramay, kurash usullarini o'rgatish o'rniga daraxtni quchoqlatib qo'yasiz. Men uni olib ketaman...

Ustozning o'g'lingiz pishiq,



ancha yetilib qoldi, degan gaplari ham ta'sir qilmadi. Ota-bola yo'lga tushishibdi. Tog'lar, daralar oshib, o'z maskanlari tomon yo'l olishibdi. Bahavo bir qishloqdan o'tayotganlarida, odamlarning baqirib, qiy-chuv qilgancha to'rt tomonga chopayotganlarini ko'rib, hayron qolishibdi. Ma'lum bo'lishicha, bir quturgan buqa duch kelgan narsani vayron qilib, ko'zlaridan o't chaqnagancha odamlarni toptab tashlayotganimish. Jon shirinligidan ulkan daraxtning tepasiga qanday qilib chiqib olganini bilmay qolgan ota o'g'lini pastda qolib ketganini sezmay qolibdi. Qo'rqib ketganidan ovozinig boricha baqirib, o'g'lini yoniga chaqira boshlabdi. Bola esa xuddi sehrlanganday quturgan mahuqqa qarab turganimish. Uning bu turishi darg'azab hayvonning jazavasini yanayam qo'zg'ab yuboribdi. Yo'lni changitganicha chopib kelib, bolani shoxiga ilib, osmon-u falakka

otmoqchi bo'libdi. Bola esa unga ustalik bilan chap beribdi va bo'ynidan

shunday qisib ushlabdiki, og'zi ko'piklab, vahshiylashib ketgan jonivor qimirlolmay qolibdi. Bir zumda ro'y bergan bu voqea hammani hayratga solibdi. Bolaning yordamida qishloq ahli quturgan hayvonni zanjirband qilishibdi. O'z ko'zlariga ishonmagan ota ham qaltiragancha daraxtdan tushib kelib: «Yasha o'g'lim!» deya uni bag'riga bosibdi. Odamlarning: «Haqiqiy pahlavon ekan», deya olqishlashlari butun qishloqni tutibdi. Shovqin-suron biroz bosilgach, ota yana yo'l boshlabdi. U uyi tomon emas, yana ortga qarab yo'l solibdi. Bola ham indamay unga ergashibdi, qalbida yangi umid g'unchalari gullay boshlabdi. Otaning ko'nglini esa bir andisha parmalay boshlabdi:

– Ustoz uzurimni qabul qilarmikinlar?..

Fayzullo DO'ST

QACHON POLVON BO'LASAN, BOLAM?

Xo'jalik raisimiz Tuyg'un Qurbonov: «Polvon odam biroz qiziqqon bo'ladi. Uni ranjitsangiz, olamni buzadi. Maqtasangiz, dunyoni yelkasiga ko'taradi», derdi.

Raisning gapi nechog'li haq ekanligini yillar o'tib hayotiy kuzatuvlarim orqali anglaganman.


Kuni kecha Guanchjou shahrida o'tgan XVI Osiyo o'yinlarida yurtimiz sha'nini himoya qilgan kurashchimiz Rishod Sobirov faxr bilan O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarib yugurganida, rais boboning gaplari yana bir bor xayolimdan kechdi. Nazarimda, kurashchimiz butun boshli O'zbekistonni yelkasida ko'tarib, dunyoga ko'z-ko'z qilayotgandek tuyuldi.

Bobom rahmatlik bizni Surxon to'ylarida polvonlar safida turishimiz lozimligini bot-bot ta'kidlar edi. Emishki, ayollar safida tursak, «o'yinchi» bo'lib ketarmishmiz...

Shuning uchun bo'lsa kerak, bolalikda har gal to'yga borganimda, tavakkal qilib kurashga tushardim.

Bobom orimni junbushga keltirish uchun:

– Bolam, kurash bu non yeyish emaski, o'tirganda ikkitasini paqqos urib qo'ysang, – der edi. Bu so'zlar menga og'ir botib, nafsoniyatimni qo'zg'ardi. Kelasi to'yda, albatta, kimnidir yiqitishni dilimga tugib qo'yardim. U paytlar to'ylarni o'tkazish vaqti ham yuqoridan belgilangan bo'lib, ko'proq qahraton qishda, dala yumushlari tugagan paytlari bo'lardi. Biz bolalar sovuq qorlarda diydirab, sha'nimizni



himoya qilayotgandek yalang oyoq kurash maydoniga chiqardik. O'shanda bir qancha polvon bolalarning kuragini yerga tekkizganimni hanuzgacha zavqlanib eslayman.

Yaqinda xizmat safari bilan Surxondaryoga bordim, u yerda o'tayotgan bir to'yni kuzatib, bobomning gaplarini esladim. Butun boshli bir davra o'ynaypti, tomoshabin yo'q, hamma «o'yinchi» bo'lib ketibdi...

Surxondaryoning kurashmasa suyaklari qisirlaydigan alpomishlari qani degan savol bo'g'zimd qotdi...

O'g'lim Hojiakbar bir to'yda sakkiz nafar tengqurini yiqitgach, polvon bo'lish orzusi bilan yona boshladi. Uning ra'yini qaytarmadim. Bobom hayot bo'lganlarida, balki uning bu qarori uchun qo'y so'yib, elga osh bergan bo'larmidilar?!

U hozir O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutida o'qiyapti. Polvon bo'lish uchun maydonlarda yeng shimarib, juda ko'p mehnat qilishi kerak. Uni bobom yanglig' tinimsiz tergayveraman.

– Bolam, sen mendan ranjima, negaki, polvon bo'lish istagi ilk bor sendan chiqqani sir emas. Shunday ekan, O'zbekiston bayrog'ini dunyo maydonlarida baland ko'tarib yurmaguningcha mening so'rovim davom etadi...

Axta**mqul** KARIMOV

SPORTCHILARNING SHOIRA OPASI

2001-yilda Respublika Olimpiya zaxiralari kolleji maqomini olgan sport maskaniga respublikamizning turli joylaridan kelgan, sog'lom va qobiliyatli bolalar va o'smirlar, sport maktablari, maxsus jamoalardan saralangan o'quvchilar 7-sinfdan boshlab qabul qilinadilar.


«Ikkinchi darajali sog'lom avlod uchun» ordeni sohibasi, Respublika Olimpiya zaxiralari kolleji direktorining ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha o'rinbosari Shoira opa Abdullayevani ko'plab sportchilar yaxshi bilishadi. Chunki shu dargohdagi salkam o'ttiz yillik ish faoliyati davomida Shoira opaning har kuni yosh sportchilar orasida o'tadi. Kollejda o'tkaziladigan har bir bayramda uning o'quvchilari faol ishtirok etishadi.

Sahnada sportchilar aktyor, qo'shiqchi, shoir va qiziqchi bo'lishadi. Bu kabi tadbirlar esa Shoira opasiz o'tmaydi.

– Bugungi kunda 23 ta sport bo'limimizda mamlakatimizning barcha viloyatlaridan kelgan 750 nafar o'quvchi mahoratlarini oshirmoqdalar. Maskanimizda besh ming o'rinli stadion, uchta futbol maydoni, kurash, boks zallari, usti yopiq suzish havzasi, 450 o'rinli uchta yotoqxonona hamda zamonaviy yengil atletika manevi o'quvchilar ixtiyorida, – deydi Shoira opa. – Kollejimiz O'zbekistonning milliy terma jamoalari uchun sportchilar yetkazib beruvchi asosiy baza hisoblanadi. Ayni damda yuqoridagi sport turlari bo'yicha 294 nafar o'quvchilarimiz milliy terma jamoa a'zosi, 267 nafari esa a'zolikka nomzoddir. Bu yerda ilk bor katta sport yo'lini tanlagan bo'lajak sportchilarimiz hozirgi kunda xalqaro maydonlarda mustaqil O'zbekistonimiz dovrug'ini jahonga taratmoqdalar.



MASHG'ULOTLAR
UZUN VA
YETAKLAVAPTI



Shohruh QO'CHQOROV, sambo, dzyudo bo'yicha o'n marta O'zbekiston, uch bor Osiyo, Yevroosiyo chempioni va Jahon chempionati sovrindori, turli xalqaro turnirlar g'olibi:

– Men mustaqillik tengdoshiman. Taniqli polvon tog'amga havas qilib, sport olamiga kirib keldim. O'n yoshimdan murabbiy, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi Ravshan aka Ahmadjonovdan sambo kurashi bo'yicha saboq olishni boshladim. Ikki yillik muntazam shug'ullanishlarim o'z natijasini berdi. 12 yoshimda xalqaro musobaqalarga yo'l oldim. 14 yoshimda professional sportchi degan nomga erishdim. Yutuqlarim zamirida yurt-boshimiz e'tibori xalqimizning mehruhmuhabbati yotadi. Yaxshi sportchi hech qachon bo'sh qolmaydi. Uning bugungi mashg'uloti ertangi g'alabasi demakdir. 2012-yili Londonda o'tadigan yozgi Olimpiadada ishtirok etib, yurt sharafigini himoya qilmoqchiman.

HAMROHINGIZ
SPORT BO'LSIN!

Dillarni quvontirib, yangi yil eshik qoqmoqda. Barcha o'quv maskanlarida, maktabgacha tarbiya muassasalarida archa bayramiga qizg'in hozirlik ko'rilyapti.

Uchtepa tumanidagi Saltanat opa To'laganova rahbarlik qilayotgan 123-maktabda ham bayram oldi tadbiri tashkillashtirildi. Unda yong'in xavfsizligi bilan bog'liq muammolar, keraksiz bang'ildoq o'yinchoqlardan voz kechish lozimligi sahna ko'rinishlari orqali namoyish etildi. Anjuman direktorning ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari Mavjuda opa Hayitovanning kirish so'zlari bilan boshlandi. 7-sinf o'quvchilari shu mavzuda she'rlar o'qishdi, sahna ko'rinishlarida ishtirok etishdi.

Tadbir ishtirokchilari pirotexnika vositalarini o'ynab, hayotlarini xavf ostida qoldirgandan ko'ra, sport bilan do'stlashish afzalligiga yana bir bor amin bo'lishdi.

Muzaffar AHMEDOV

O'ZINGNI SINAB
KO'R!

1

Muhammadqodir Abdullayev qachon jahon chempioni bo'lgan edi?

- a) 1999-yil;
- b) 2000-yil;
- d) 2002-yil.

2

Iroda To'laganova eng nufuzli qaysi turnirda g'oliblikni qo'lga kiritgan?

- a) Uimbildon turniri;
- b) «Ulkan toj»;
- d) WTA turkumi.

3

Rustam Qosimjonov qachon tug'ilgan?

- a) 1979-yil 5-dekabr;
- b) 1980-yil 20-oktabr;
- d) 1981-yil 15-sentabr.

4

«Sog'lom avlod uchun» ordeni qachon ta'sis etildi?

- a) 1993-yil 7-may;
- b) 1994-yil 10-oktabr;
- d) 1996-yil 8-dekabr.



GUANCHJOUNING «TUHFA»SI

2004-yilda Elshod akangiz AQSH-ning Arizona shtatida yoshlar o'rtasida bo'lib o'tgan boks bo'yicha jahon chempionatida g'olib chiqqan. O'sha yilning o'zida harbiylar o'rtasida Janubiy Koreyaning Jijun shahrida tashkillashtirilgan xalqaro turnirda kumush medal sohibi bo'ldi.

2006-yilda esa Germaniyada o'tkazilgan harbiylar o'rtasidagi xalqaro turnirda oltin medal bilan taqdirlandi.

Aynan o'sha yilda Qatarning Doha shahri mezbonlik qilgan XV Osiyo o'yinlarida ham 75 kilogramm vazn toifasida unga teng keladigan raqib topilmadi. U Osiyo o'yinlari chempioni bo'ldi.

2007-va 2009-yillarda Elshod Rasulov Mo'g'uliston va Xitoy mamlakatlarida bo'lib o'tgan Osiyo chempionatlari oltin medallarini qo'lga kiritdi.

Qariyb o'n besh yildan buyon boks bilan shug'ullanib kelayotgan Elshod Rasulov o'z vaznida jahonning yetakchi sportchilaridan biri sanaladi.

Shuningdek, Eron, Tailand, Turkiya, Germaniya va Chernogoriya kabi davlatlar mezbonlik qilgan xalqaro turnirlarda g'olib bo'ldi.

O'tgan yili Italiyaning Milan shahrida o'tkazilgan jahon chempionatidan kumush medal bilan yurtimizga qaytib keldi.

Mazkur yilimiz ham Elshod uchun muvaffaqiyatli keldi. Xitoyning Guanchjou shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi XVI Osiyo o'yinlarida oltin medalni qo'lga kiritdi.

Mamlakatimiz sporti va o'zbek boks maktabini dunyoga tanilishiga qo'shgan hissasi uchun Elshod akangiz «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi» faxriy unvoni va «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlandi.

Fazliddin ABILOV tayyorladi



– Nevaram zo'r futbolchi bo'lmoqchi!

– Chevaramiz kecha tennisda hammani yutibdi.

– Qo'shimizning qizchasi gimnastikaga qatnashyapti. Bir paytlar bizdan ham gimnastikachilar chiqarmikin, deya orzu qilardim.

– Mustaqillik bolalarimizga keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Yangi avlod ana shu g'amxo'rlikni tushungan holda dadil qadam tashlayapti.

– Ko'z tegmasin: jahon shohsupalarida chiroyli bayrog'imni baland ko'tarilayotganini ko'rib, juda-juda g'ururlanaman!


Bir paytlar orzular olovida yongan va bugun o'sha orzulari-

ning ro'yobga chiqayotganini ko'rgan keksa avlodning bunday suhbatlariga bugun har joyda, har yerda guvoh bo'lish mumkin, aziz



«UMID NIHOHLARI - 2012» - NAVOIYDA

Mezbonlikni qabul qilgan Navoiy viloyatida tayyorgarlik ishlari avjida.



bolalar va siz bundan faxrlansangiz arziydi: biz har birimiz sizlarga havas bilan qarab, har biringizga omad va baxt tilaymiz va o'z o'rnida sizga yeng bo'lishga harakat qilamiz. Bugungi sonimizni sport mavzuiga bag'ishlaganimizning boisi ana shunda. Azaldan sport – tinchlik, do'stlik elchisi. Sport bilan oshno bo'lganlar nafaqat sog'lig'ini tiklaydi, balki shon-sharafga, obro'-e'tiborga sazovor bo'ladi. Yurt sha'nini ko'tarib, nomini ellarga doston etadi. Bugungi maxsus sonimizda ular haqida baholiqdrat hikoya qilishga harakat qildik. Shuningdek, siz sport mavzuidagi rang-barang maqola, xabar va lavhalar bilan tanishasiz. Ijodkorlarimizning she'r va hikoyalari ham sizga manzur bo'ladi, degan umid-damiz. Umuman, tahririyatimizning Feruzalari, Ma'mura va Manzura, Zebo qizlari sizlar uchun ana shunday ezgu ishni amalga oshirishdi. Yurtimizning bo'lajak chempionlari, albatta, sizlarning orangizdan yetishib chiqadi. Bu yo'lda barchangizga omad yor bo'lsin, aziz o'quvchilar!

MAYDONDA TO'P SURAYOTGAN KIM?
Mahallamiz bolalari bo'sh paytlarida koptok o'ynashadi. Ular ning baqirgan-chaqirgan holda to'p surayotganlarini ko'rib, ochig'i, havasim keladi: yon atrofimizda bir emas, bir necha sport majmualari, stadionlar, tennis maydonlari mavjudki, ular doimo o'smirlar bilan gavjum.



(Hikoya)

Qudrat deganlari bemaza bola, tekkanga tegib, tegmaganga kesak otib yuradi. Jussasi kichik, sariqroqdan kelgan Salimni ko'rib, u beixtiyor tirjaydi: sarg'aygan so'yloq tishlari do'rdoq lablaridan oldinga bo'rtib chiqdi:

– Ey, mishiqli, yana burningni tiqib kelyapsanmi? Senga necha marta aytdim, sendan polvon chiqmaydi, deb. Polvon bo'lish uchun gavda kerak odamga!

Salim chetlangancha ichkari kirdi. To'g'ri aytadi, balki undan polvon chiqmas! Balki behuda kelib-ketib yurgandir. Boshqa to'garakka qatnaganini ma'qulmikin?!

Ustoz Mavlon aka uning tund yuziga boqdi:

– Nimaga xafa ko'rinasan, kichkina polvon?..

Bolalar unga qiziqish bilan qarashdi. Ustozning «kichkina polvon» deb erkalashi uning o'ziga ham yoqdi.

– Ustoz...

– Xo'sh?

– Polvon bo'lish uchun gavda kerakmi?!

– Gap bu yoqda degin! – Mavlon aka uning mitti yelkasiga barvasta qo'llarini qo'ydi. – Insonni quruq gavda emas, aql kamolotga yetkazadi. Kurash – kuch degani emas, uning boshi va oxiri – bilim!

Qudrat chetga chirt tupurdi.

Ustoz unga tanbeh berdi:

– Zalda tupurmaydilar, polvon degani tartibga, ozodagarchilikka, do'stlariga mehribon bo'lishga odatlanadi.

Bolalar unga nafrat bilan qarashdi.

Ustoz Salimning boshini siladi:

– Sen bilimli bolasan, bilimingni ishga solsang, sendan zo'r polvon chiqadi!

Salimning qorong'i ko'ngli yorishdi. Yo'q, u bu yerdan ketmaydi, astoydil shug'ullanib, zo'r polvon bo'ladi. U Qudratning yoniga borib, g'oz qotdi. «Shuning o'zi g'alaba!», degan gap ko'nglidan o'tib, bir gaz o'sgandek, ich-ichidan suyundi.

«SPORT» TOPSHIRIQLI AYLANMA KROSSVORD



Shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida: 1. Ikki ustunga gorizontol holatda o'rnatilgan temir to'sindan iborat gimnastika snaryadi. 2. Qurolsiz o'zini-o'zi himoya qilishning yaponcha tizimiga asoslangan sport turi. 3. Vatanimizning «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoniga sazovor bo'lgan Xalqaro Futbol Federatsiyasi (FIFA) referisi, taniqli futbol hakami. 4. Aqliy sport o'yini. 5. Yengil atletika sporti turi. 6. Raketka bilan o'ynaladigan sport turi. 7. Futboldagi o'yindan tashqari holat. 8. Og'ir atletika sporti. 9. Tennis sporti anjomi. 10. Klyushka va shayba bilan o'ynaladigan qishki sport o'yini. 11. Vatanimizdagi eng katta stadion. 12. Musobaqalarda g'olibga beriladigan mukofot. 13. Sport musobaqalari o'tkaziladigan majmua, inshoot. 14. Sportda erishilgan eng yuqori natija. 15. Qilichbozlik musobaqalarida qo'llaniladigan qayishqoq, to'rt qirrali, har bir sanchiqini qayd etuvchi elektr aloqali qurilmasi bo'lgan shamsirdan iborat sanchuvchi qurol. 16. Kalta dasta bilan birlashtirilgan ikkita cho'yan shardan iborat gimnastika asbobi. 17. Vatanimiz futboli yulduzi, murabbiy. 18. Dzyudo sporti uchun mo'ljallangan tarang, elastik gilam. 19. Suvga sakrash sportida mumkin qadar uzoqqa yoki balandga sakrashga mo'ljallangan moslama. 20. Qisqa masofaga yugurish, suzish bo'yicha o'tkazilgan musobaqa. 21. Sportning biror turi

bo'yicha o'tkaziladigan musobaqa g'olibi bo'lgan sportchi yoki jamoa. 22. Shaxmat bo'yicha jahonning 1975-1985, 1993-1999-yillardagi chempioni. 23. Shaxmat o'yinining boshida tezroq hujumga o'tish, qulay vaziyatga ega bo'lish maqsadida, bir piyoda yoki sipohni qurbon qilish. 24. Shaxmat o'yinida eng kuchli dona. 25. Xonada o'tkaziladigan to'pli sport o'yini. 26. Dunyoda eng ommalashgan sport. 27. Yigirma kilometrli chang'i poygasida miltiqdan ikki marta, tik turgan va yotgan holda nishonga o'q uzishdan iborat qishki sport. 28. Muvaffaqiyat, zafar. 29. Sportda orttirilgan tajriba, mahorat.

Endi javoblar asosida quyidagi raqamlar justini (birinchisi so'z ta'rif, ikkinchisi esa, javob so'zdagi harf tartibini anglatadi) taalluqli harflar bilan almashtirib, topshiriqni hal eting. 6-6; 11-1; 3-6; 9-1; 1-1. 7-3; 19-3; 25-6; 12-2; 4-4; 24-2; 18-1; 16-6; 20-4; 2-1. 12-3; 28-2. 23-4; 8-3; 15-1; 5-3; 27-3; 17-5; 10-2; 26-6; 28-3; 21-5; 22-1. 29-2; 13-1; 3-4; 17-3; 24-5; Bunda ulardan ibratli so'zni bilib olasiz.

TASVIRLI
JUMBOQ

Shaklning o'rta qismlaridagi shartli tasvirlarda qaysi sport turlari aks ettirilganligini toping-chi?

Foziljon ORIPOV

DARAXTDA
NECHTA QUSH
QOLDI?

Matematika ustoz boshlang'ich sinf o'quvchilaridan so'radi:

– Daraxtda beshta qush bor. Birini urdim, nechta qoldi?

Ahmad tezda javob berdi:

– Ustoz, daraxtda qush qolmadi. Chunki tovushdan hammasi uchib ketadi.



BOKSCHI BO'LSAM...

Keksa ustoz biologiya darsida mushaklar haqida tushuntirdi va o'quvchilardan biriga shu savolni berdi:

– Qani, Alisher, ayt-chi, hozir men boks bilan shug'ullansam, qaysi mushaklarim ishlaydi?

– Tomoshabinning kulish mushaklari, ustoz! – dedi Alisher.

HAKAM BO'LAMAN

Kunlardan bir kuni otasi o'g'liga dedi:

– O'g'lim, mana ikki yildirki, maktabga borib kelyapsan endigina o'ngacha sanashni bilasan. Bu ketishda kim bo'lasan, bilmayman...

Bola otasiga kulimsirab dedi:

– Otajon, hech tashvishlanmang, men boks hakami bo'lishga qaror qildim, – dedi.

Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi



Maxsus sonni nashrga tayyorlaganlar:

T.HAYIT,
F.JALILOVA,
F.ADILOVA,
M.MADRAHIMOVA,
Yu.ABDULLAYEVA,
G.ORIFJONOVA,
N.ABDULLAYEVA,
O.ORIPOV.

Sahifalarni bezatishda rassom Osimxon VOSIXONOV chizgan rasmlardan foydalanildi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taqoq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31787
Buyurtma N: J 744

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.